

**TA'LIM JARAYONIDA AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY TA'LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

Shirinov Feruzbek Shuhratovich

Qo‘qon DPI Informatika kafedrasи

katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada informatika ta'limalda an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: an'anaviy dars, o‘quv materiali, ta'lim jarayoni, platforma, noan'anaviy ta'lim, tadqiqot.

Annotation: This article provides insights into the use of traditional and non-traditional educational technologies in computer science education.

Keywords and expressions: traditional lesson, educational material, educational process, platform, non-traditional education, research.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo‘ljallangan. Ta'lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir. O‘quv materiali yangi va ancha murakkab bo‘lganda, an'anaviy dars – ko‘p hollarda ta'lim jarayonining birdan – bir metodi bo‘lib qolmoqda. Ma’lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o‘qituvchi turadi. Shu bois, ba’zida an'anaviy darsni markazida o‘qituvchi turgan o‘qitish usuli deb ham atashadi

Markazda o‘qituvchi bo‘lgan o‘quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiliy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;
- o‘qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- o‘quvchi tashabbusi va majburiyatini qo‘llab – quvvatlash;
- amaliyot orqali o‘rganish;
- ikki tomonlama fikr – mulohazalar bilan ta’minalash;
- o‘qish jarayonini to‘g’ri yo‘lga qo‘yish;
- o‘qituvchi – o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonini yengillashtiruvchi shaxs;
- o‘quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o‘tish modelida ko‘proq ma’ruza, savol – javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalilanadi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo‘lib, o‘quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli tuman o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik – kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, kichik guruhlarda ishlash, interfaol metodlarni qo'llash, turli qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, turli baholash usullaridan foydalanish, ta'lif vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi bosqichlardan iboratdir.

1. Kirish bosqichi: - o'tgan o'quv materialini takrorlash; - dars maqsadini tushuntirish, - dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. Yangi mavzuni yoritish: - yangi mavzuni kichik – kichik bo'lakchalarga bo'lib berish; - turli misollarni inkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish; - mavzudan chetlashmaslik; - o'quv materialining murakkab tomonlarini qayta tushuntirish; - o'quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirib borish; - teskari aloqani ta'minlash.

3. Materialni mustahkamlash uchun mashq. Biror topshiriq(masala) echimini o'quvchilar bilan to'liq tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq. O'quvchilar topshiriq(masala)ni mustaqil bajarishadi, o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq. O'quvchilar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajarishadi. 6. O'quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirish.

7. Yakunlash. An'anaviy(ta'lif jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) o'qitish metodlari quyidagi afzalliklarga va kamchiliklarga ega.

Afzalliklari: - ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali; - o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi; - vaqtadan unumli foydalanish; - aniq ilmiy bilimlarga tayanadi. Kamchiliklari: - o'quvchilar passiy ishtirokchi bo'lib qoladilar; - o'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi; - o'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi; - eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'limganligi sababli, guruh bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin; - mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Hozirgi vaqtida ta'lif muassasalarida o'qitishning zamonaviy shakl va usullari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash ta'linda yuqori samaradorlikka olib keladi. An'anaviy o'qitishda asosan o'qituvchiga erkinlik beriladi (sub'ekt-ob'ekt), noan'anaviy o'qitishda esa o'quvchiga erkinlik beriladi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini demokratlashtirish (sub'ekt-ob'ekt) asosida dars jarayonlari tashkil etiladi.

O'qitishning noan'anaviy usullaridan samarali foydalanish o'qituvchining kasbiy malakasi hamda mahoratiga bog'liq.

Noan'anaviy o'qitish jarayonida o'qitishning tashkiliy shakllari(frontal, guruhlarda ishlash, individual ishlash) yordamida o'qituvchi dars o'tishda quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

Aqliy hujum. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilarga topshiriq (savol) beradi, o'quvchilarining topshiriqlar borasida berilgan fikr-mulohazalari jamlanadi. O'quvchilar hamkorlikda murakkab muommoni yechishga harakat qiladilar. Uni hal etish uchun o'z shaxsiy g'oyalarni ilgari suradilar.

Guruh (juft) bo'lib ishlash. Darsda ishtirok etayotgan o'quvchilar guruhlarga (4 - 6 o'quvchi) bo'linib yoki juft - juft bo'lib o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajaradi.

Bahs. O'quv guruhi ikki komandaga bo'linadi. Tegishli mavzu bo'yicha bahs, munozara yuritiladi, o'zaro fikr almashiniladi.

Mehmon mashqlari. Bunda dars biron mutaxassis ishtirokida o'tkaziladi. Mutaxassis taklif etish, kutib olish, dars jarayonini tashkil etib, uni kuzatib qo'yish kabi barcha tashkiliy ishlarni o'quvchilarining o'zlarini bajaradilar.

So'rovnoma o'tkazish. Fanni o'qitish davomida har bir bo'lim, bob yakunlanganidan so'ng o'qituvchi so'rovnoma o'tkazadi.

Og'zaki va yozma mashqlar. Og'zaki mashqlar ta'lim oluvchilarining nutq madaniyati va mantiqiy fikrlashini, ularning bilish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Yozma mashqlar orqali esa o'quvchilarda tegishli ko'nikma va malakalar shakillantiriladi, chuqurlashtiriladi va mustahkamlanadi.

O'z-o'zini attestatsiya qilish. Har bir ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'z faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan usuldir.

Natijalarni tahlil qilish. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga qo'ygan baholar natijasi va dars-mashg'ulotda qo'yilgan maqsadga qay darajada erishganlik tahlil etiladi.

Video materiallardan foydalanish. Dars jarayonida multimedia tizimidan, videoyozuvlardan, o'quv televidenesi, axborotni displayda aks ettiruvchi kompterlardan foydalanish.

Tadqiqot. Ta'lim oluvchilarining ayrim tadqiqot ishlarni, ya'ni diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarni ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishlari, ularni yozish va qo'yilgan maqsad va natijalarni tahlil qilishi.

Improvizatsiya. Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarining nostandart vaziyatlarni mustaqil hal eta olishlari.

Kuzatish va ma'lumotlarni yetkazish. Ta'lim oluvchilarining bir-birlarini kuzatishlari va qo'yilgan muammo bo'yicha ma'lumotlarni yetkazishi.

O'yinlar. Ishbilarmonlik yoki sahnalashtirilgan o'yinlar –muammoli vazifaning bir turi. Bunda matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Loyihalash ishlari. Bu bilim va malakalarni tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi majmuaviy ta'lim usulidir. Loyiha usulida o'quvchilar rejlashtirishda, tashkil

etishda, tekshirishda, tahlil etishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko‘proq ishtirok etadilar.

Kitob bilan ishlash. Ushbu usul ta’lim oluvchilarning o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishi, o‘z-o‘zini tekshirish malakasini oshirishi, berilgan matnningmazmunini to‘liq va ongli ravishda bayon eta bilishi bilan bog’liq..

Individual - amaliy usul. Ta’lim oluvchilar olgan bilimlari asosida amaliy vazifalarni hal qiladilar, ya’ni nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etadilar.

Ko‘rgazmali materiallar (diagramma, karta, fotografiya, san’at asarlari, plakatlar) bilan ishlash. Ta’lim oluvchilar mustaqil holda ko‘rgazmali materiallar bilan ishlashadi. Ularning o‘zлари ham ko‘rgazmali materiallarni tayyorlaydi.

Suhbat. Bu o‘qitish va o‘qishning muloqot, savol-javob usulidir. Suhbat individual holda yoki butun guruh bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin.

Vaziyatlarni o‘rganish. Ta’lim muassasalarida vujudga keladigan standart vaziyatlar o‘rganiladi va ularni hal etish yo‘llari ishlab chiqiladi.

Boshqalarni o‘qitish. Bu usulda ta’lim oluvchilar qo‘yilgan muammo bo‘yicha bir-birlari bilan o‘zaro axborot va ma’lumot almashadilar.

Baholash. Bunda ta’lim oluvchilar maqsadga qay darajada erishganini aniqlaydilar. Ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi orqali yoki o‘zaro bir-birlarini baholashadi. Baholashning quyidagi turlari mavjud: tekshiruv, savol-javob, har xil savollarni tanlash, to‘g’ri va noto‘g’ri shakldagi javoblar, o‘z-o‘zini baholash, tengdoshining baholashi, ustozlarning fikrlari, harakatlar rejasi, har xil tavsiyalar, reyting, tadqimot, intervyu, testlar, videokamera yoki inson kuzatishi, mikrotopshiriqlar, loyihamorlari orqali baholash va h. k.

Bugungi kun talabi ta’limni sifat o‘zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o‘rganishdagi yondashuvlar (metodlar) ham o‘zgarmoqda. Ta’limda yangi bilimlarni amalda qo‘llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta’lim yaratilishiga olib kelmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimini har tamonlama rivojlantirish kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va isloh qilish davlat ahamiyatidagi eng ustivor vazifalar qatoriga kiradi. O‘quvchi o‘zlashtirgan bilimini amaliyotda qo‘llay bilishi uchun uni o‘z vaqtida mustahkamlashi, boshqa tushunchalarni o‘rganishda qo‘llash bilishi va olingan bilimlarni tizimlashtirish ta’lim samaradorligini ta’minlashga olib keladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

9. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o‘qitish metodikasi. Toshkent, —Talqin, 2005 y.

10. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg’ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y. O‘quv-metodik qo‘llanma. T., 2012 y., 120 b.6.

11. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar(ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.
12. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.
13. Shirinov, F., and A. Mamasoliyev. "A GENERAL DESCRIPTION OF THE HARDWARE AND SOFTWARE ENVIRONMENT USED TO ORGANIZE COMPUTER-BASED LEARNING PROCESSES." Euro-Asia Conferences. Vol. 3. No. 1. 2021.
14. Ikromovich, Honboboyev Xakimjon, et al. "MATHEMATICAL MODEL OF CHECKING THE BEHAVIOR OF AN INDUSTRIAL ROBOT IN THE STRUCTURE OF A TECHNOLOGICAL MODULE FOR STAGNATION." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
15. Marufovich, Aripov Masud, and Shirinov Feruzjon Shuxratovich. "DEVELOPING THE COMPETENCE OF FUTURE INFORMATICS TEACHERS TO WORK WITH GRAPHICAL INFORMATION." ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ANALYSIS 2 (2022): 183-187.
16. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon, and Botirov Muzaffarjon Mansurovich. "PROBLEMS WORKING WITH COMPUTER GRAPHICS APPLICATIONS IN THE LEARNING PROCESS." Open Access Repository 8.1 (2022): 92-95.
17. Shuxratovich, Shirinov Feruzjon. "Technology for Working with Graphic Programs." Open Access Repository 9.12 (2022): 99-102.